

ARAB TILINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'QITISH METODLARI

Jamalova Ummugulsum Abdullayevna ¹

¹ Linguistics, Literature and Pedagogy.

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:07.04.2025

Revised: 08.04.2025

Accepted:09.04.2025

KALIT SO'ZLAR:

Arab tili, usul va
uslublar, metodlar,
tushunchalar,
lingvistik.

The spread of Islam contributed to the spread of the Arabic language around the world. Not only Islam, but also the characteristics of the Arabic language contributed to the spread of the Arabic language in a way that distinguishes it from other languages.

KIRISH. Arab tili qadimgi sharq tillaridan biri bo'lib, somiy tillarining janubiy tarmog'iga kiradi. Arab tilining rivojlanishi uch asosiy davrga ajratiladi:

1. Qadimgi
2. Klassik
3. Zamonaviy

O'zbekistonda arab tilini o'rganish uzoq tarixiy an'anaga ega. Ko'pgina ilmiy va badiiy asarlar ajdodlarimiz tarafidan bu tilda yozilgan. Arab tili juda boy tildir va u mantiq tilidir. To'ridan to'g'ri insonning mantiqiga ta'sir qiladi. Arab tili Qur'oni Karim tilidir, hozirgi kunda undan ikki yuz milliondan ortiq xalq foydalanadi. Adabiy arab tili butun dunyo musulmonlarini birlashtiruvchi tildir. Islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar tillari lug'atida arabcha leksemalar ko'p. Arab tilining yozuv bilan solishtirish mumkin bo'lgan lug'ati mavjud (ibnu Manzurning 13-asrda tuzilgan 20 bobdan tarkib topgan "Lisan al-arab" lug'at kitobi mavjud).

Arab tilining fonetik jihatdan o'ziga xosliklari:

Arab tilidagi barcha so'zlar ma'lum qolip va konstruksiyalarga mos qurilganligi sababli, oson qofiyalanadi. Go'zal sherlar, misralarni qofiyalash osonlashadi. Arab tili tovushlarining hosil bo'lish joyi bo'yicha uygun taqsimlanishi, tovush paychalaridan labgacha. Arab harflarining talaffuzi o'ziga xos kuch va tayyorgarlikni talab qiladi. Arab tilidagi zod (dzod) va 'ayn harflari va ularning talaffuzi boshqa tillarda uchramaydi.

Biz arab tili bilan bog'liq faqatgina bir jihatga, uni o'qitishga to'xtalamiz. Hozirgi kunda O'zbekiston va arab dalatlari orasidagi aloqalar sezilarli ravishda jonlandi, va bu aloqalar o'z o'rnida arab tili mutahasislari va tarjimonlarga ehtiyoj tug'diradi.

Va bu arab tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi kundagi o'qitilayotgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari, lug'atlar va adabiyotlar zamon talablariga javob bermaydi. Ayniqsa nutqni o'sishini rivojlantiradigan darsliklar juda kam.

Arab tilini o'rganish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda ta'lim faoliyatining asosiy shakllari sifatida turli usullar qo'llaniladi: mavzuni tushuntirish, mavzuga oid mashqlar bajarish, mavzuga oid savollarga javob berish, va talabalarning mavzuni o'zlashtirgan yoki o'zlashtirmaganligini bil/ish uchun imtihonlar tashkil etishdan iborat.

Arab tilini o'qitish yo'llari va metodlari juda ko'p bo'lib, arab tilini o'rgatishda asosan ikki usuldan foydalaniladi: alohida va qo'shma.

Alohida o'rgatish metodi- bu arab tilining barcha bo'limlari, ya'ni o'qish, yozish, nutq va imlo va grammatika alohida fan sifatida alohida darsliklar orqali o'qitiladi. Bu metodning afzalligi shundaki, har bir bo'lim uchun maxsus vaqt ajratilganligi tufayli har bir bo'lim mukammal tarzda o'rgatish imkoniyati bo'ladi. Afzalliklari bilan birgalikda kamchiliklari ham mavjud. Bo'limlarni alohida o'qitish tilning sun'iy bo'linishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning real vaziyatda o'z fikrini to'g'ri ifodalay olmasligiga olib keladi. Yana bir kamchiliklaridan biri o'quvchilarning ko'nikma va bilimlari notekis rivojlanishidir. Buning sababi esa o'qituvchining arab tilining faqatgina bir bo'limiga e'tibor berishidir. Boshqa bo'limlarga e'tiborning kamayishiga olib keladi. O'zbekistonda ham arab tilining grammatika bo'limiga ko'proq e'tibor qaratiladi va boshqa bo'limlariga e'tibor biroz sust.

Qo'shma o'rgatish metodi- bu usulda tilni bir necha bolimlarga bo'lish nazarda tutilmaydi, balki bir butun o'rgatiladi. Alohida matn yoki mavzu asosida grammatika, o'qish, og'zaki nutq va yozma, yozish va grammatikani baravar o'rgatish metodidir. Bu usul an'anaviy usuldir.

Arab tilini o'rgatish uchun o'tga asrda son sanoqsiz metodlar va yangi usullar paydo bo'ldi, ularning ba'zilari haqiqatda muvaffaqiyatli bo'ldi, ba'zilari esa muvaffaqiyatga erisholmadi.

Yuqorida bayon qilganlarimizga asoslanib, o'quvchilar zarur grammatik asosga ega bo'lsalar ham, arab tilida zarur kommunikativ faoliyatni amalga oshirishda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu esa arab tilini mukammal o'zlashtirishda kamchiliklar yuzaga kelishiga olib keladi.

Tilni o'qitayotganda birinchi darslardan oq so'zlashishga va arab tilining boshqa bo'limlariga ham ahamiyatliroq bo'lishga undaydi. O'quvchilar uchun so'zlashish matnlarni tarjima qilishdan yoki grammatik qoidalardan ko'ra ancha qiziqarli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chet tillarini o'rgatishning ongli va qiyosiy metodi. -M., 2018-yil.
2. Yabborov G.Ya. Oliy o'quv yurtlarida arab tilini o'qitish metodikasi va texnikasi. - Boku, 2020 yil.
3. Badawi A. (1994) Modern Written Arabic: A Comprehensive Grammar. London: Routledge.
4. Khalil A. (2011). The Structure of Arabic Grammar. Cairo: Dar al- Ma'arif.
5. Al-Bayati A. (1994). Arabic Syntax and Morphology. Beirut: Dar al-Fikr.
6. Shayxislamov, N. Hozirgi Zamon Tilshunosligida Til va Madaniyatning Talqini. Scientific Progress.
7. Arablarning grammatik tizimidagi tadqiqotlar. Sankt-Peterburg: 1873. (rus tilida).